

**BOLALARDA XULQ-ATVOR SHAKLLANISHINING
PSIXOLOGIK ASOSLARI**

Xusanova Xafiza Qarshibayevna

Angren shahar 27- umumiy o'рта ta'lim maktab psixologi

Eshniyozova Gulrux Shuhrat qizi

Angren shahar 35-umumiy o'рта ta'lim maktabi psixologi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bolalarda xulq-atvor shakllanishining psixologik asoslari, unga ta'sir etuvchi omillar hamda to'g'ri tarbiya orqali ijobiy xulqni rivojlantirish yo'llari yoritiladi. Shuningdek, bola shaxsining shakllanishida oila, maktab va ijtimoiy muhitning o'rni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: xulq-atvor, bola, psixologiya, tarbiya, muhit, rivojlanish, motivatsiya, ijtimoiylashuv

KIRISH

Bolalarda xulq-atvor shakllanishi murakkab va bosqichma-bosqich kechadigan jarayon bo'lib, u biologik, psixologik va ijtimoiy omillar ta'sirida rivojlanadi. Bola tug'ilgandan boshlab atrof-muhit bilan o'zaro ta'sirga kirishadi va aynan shu jarayonda uning xulqi shakllana boshlaydi.

Xulq-atvorning shakllanishida eng muhim omillardan biri — bu oila hisoblanadi. Bola dastlabki tarbiyani oilada oladi va ota-onaning munosabati, muomala madaniyati, tarbiya uslubi uning xulqiga bevosita ta'sir qiladi. Mehr va e'tibor asosidagi muhitda ulg'aygan bola odatda ijobiy xulq namoyon etadi. Aksincha, sovuqqonlik yoki keskin muhit salbiy xatti-harakatlarga olib kelishi mumkin.

Ijtimoiy muhit ham muhim rol o'ynaydi. Bola tengdoshlar bilan muloqot jarayonida turli xulqiy ko'nikmalarni o'zlashtiradi. Ular orqali ijtimoiy qoidalarni anglaydi va jamiyatga moslashadi.

Psixologik jihatdan qaraganda, bolalarda xulq-atvor motivatsiya va ehtiyojlar bilan bog'liq holda shakllanadi. Bola o'z ehtiyojlarini qondirish uchun ma'lum xatti-harakatlarni bajaradi. Agar bu ehtiyojlar to'g'ri yo'naltirilsa, ijobiy xulq rivojlanadi.

Taqlid qilish ham xulq shakllanishining asosiy mexanizmlaridan biridir. Bola kattalarning xatti-harakatlarini kuzatib, ularga taqlid qiladi. Shu sababli ota-onalar va o'qituvchilar o'z xulqi bilan bolaga namuna bo'lishi zarur.

Rag'bat va jazolash usullari ham muhim ahamiyatga ega. Rag'batlantirish orqali ijobiy xulq mustahkamlanadi, lekin haddan tashqari jazolash salbiy natijalarga olib kelishi mumkin. Shu sababli muvozanatni saqlash zarur.

Maktab muhitida o'qituvchining roli ham katta. U o'quvchilarni ijtimoiy qoidalarga amal qilishga o'rgatadi, jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi va

ijobiy xulqni shakllantirishga yordam beradi.

Bola oilada ota-onasidan o'zini qanday tutishni va hayotiy axloq me'yorlarini o'zlashtirar ekan, ko'p narsalarni ulardan o'rganadi, yaqin kishilar bilan bo'lgan munosabatda va oiladan tashqari o'zini shunga muvofiq tarzda tutishga harakat qiladi. Bola qalbida insoniylik xususiyatlari, ma'naviy axloqiy meyorlarning shakllanishiga ota-ona va oila muhitining ta'siri katta bo'lib, bolaning shaxslararo munosabatlari va muloqot madaniyatining shakllanishiga xizmat qiladi.

Oilaviy munosabatlardagi noxushlik yoki oilada bolalar tarbiyasiga muntazam yondashuvning yo'qligi tarbiyaviy munosabatlarda bolalarning yosh va individual psixologik hamda jismoniy xususiyatlarini hisobga olmaslik, tarbiya usullarini noto'g'ri qo'llanilishi bola xulqida salbiy illatlarni asta-sekin shakllanishiga olib kelishi mumkin. Kichik yoshdagi bolalarda xarakter hali to'liq tarkib topmagan bo'lsada, unda kutilayotgan bo'lajak xarakterning asoslari deb atalishi mumkin bo'lgan psixik sifatlar: nerv psixik jarayonlar mavjuddir. Ana shu asoslardan barqaror fazilatlar asta-sekin hosil bo'la boradi. Bola xarakterida shakllanayotgan salbiy xislatlardan o'jarlik, injiqlik, qo'pollik, yolg'onchilik, manmanlik, hudbinlik kabilarda namoyon bo'ladi.

Bola shaxsining shakllanishidagi eng muhim davr — 2-3 yoshlar bo'lib, bu paytda bola to'liq tilga kiradi. Uning ruhidagi "Men" alohida kuch va qudrat bo'lib, unga o'rnashadi. Shaxs o'zini atrofdagilardan mana shu "men" orqali ajrata olishi mumkin ekanligiga o'rganib boradi. Bola biror ish yoki yumushga qo'l urar ekan, agarda siz yordam bermoqchi bo'lsangiz, "men, men o'zim" degan so'zlar bilan sizning yordamingizni inkor qila boshlaydi. Mana shu joyda siz uning aytgan so'zlarini nazarga olmay majburan bir-ikki yordam bersangiz, uning xulqida yuqorida biz aytgan shaxsning o'jarlik xususiyati bo'lmish alomatlar paydo bo'la boshlaydi.

Bu o'rinda bola harakatidagi o'zlikka intilish bilan o'jarlik, kattalarga, umum qabul qilingan qoidalarga bo'ysunmaslikni ajrata olish zarur. Shunday holat yuzaga kelar ekan, bola harakatidagi o'zlikka intilish yoki o'jarlik alomatini ajrata olmadingizmi, harakat natijasini chamalab ko'ringda, bolani bu harakat oxirida u nimaga erishishidan ogohlantirib, urinib ko'rishga imkon bering. Chunki, har qanday ta'qiqdan shaxsiy tajriba bola ruhiga ta'sir kuchi jihatdan muhimroq bo'lib u bolaning o'z xulqiy shakllanishiga har tomonlama qimmatlidir.

Bola xarakterida shakllanadigan salbiy hislatlar bola psixikasiga, ruhiy olamiga, sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, jismoniy rivojlanishiga zarar yetkazadi. Jumladan, bolalardagi o'jarlik-xarakter va irodaning zaifligi ko'rinishidir. O'jar bola maslahatni ham buyruqni ham qabul qilmaydi, faqat hamma narsani o'z bilganicha qiladi va albatta muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. O'jar bolaning qiliqlarining sababi bu: "Men bunday hohlamayman", "Men unday hohlamayman". Qat'iylik, sabrtoqatlilik, chidamlilik va boshqa irodaviy fazilatlar bolalarning o'yin faoliyatida

mustahkamlanib, qiyinchiliklarni yengishda aqliy va jismoniy kuchni talab qilib uni chiniqtiradi. O'jarlik — bu bolaning o'z fikrida qat'iy turishi, boshqalarning fikrini qabul qilmasligi va ko'pincha qarshilik ko'rsatish bilan namoyon bo'ladigan xulq-atvor xususiyatidir. Bu holat ayniqsa bolalik va o'smirlilik davrida tez-tez uchraydi va ko'p hollarda rivojlanish jarayonining tabiiy qismi hisoblanadi.

O'jarlikning paydo bo'lishiga bir nechta omillar sabab bo'ladi. Avvalo, bola mustaqillikka intiladi va o'z "men"ini namoyon qilishni xohlaydi. Shu bilan birga, otaning haddan tashqari qat'iy yoki aksincha, e'tiborsiz munosabati ham bu xulqni kuchaytirishi mumkin. Ba'zan bola o'z fikrini himoya qilishni bilmagani uchun o'jarlik orqali munosabat bildiradi.

O'jarlik turli ko'rinishda namoyon bo'ladi: gapga quloq solmaslik, topshiriqlarni bajarmaslik, ataylab qarama-qarshi harakat qilish yoki o'z aytganidan qaytmaslik. Bunday holatlarda bolani faqat tanqid qilish yoki jazolash muammoni yanada kuchaytiradi.

Bu xulq bilan ishlashda sabr va to'g'ri yondashuv muhimdir. Bola bilan muloyim va tushuntirish asosida muloqot qilish, unga tanlov berish, fikrini hurmat qilish o'jarlikni kamaytirishga yordam beradi. Shuningdek, ijobiy xulqni rag'batlantirish va ortiqcha bosim bermaslik ham muhim hisoblanadi. Bolalardagi o'jarlik-qat'iylik va biror maqsadga qaratilganlikni rivojlanishiga to'sqinlik qilib, insonni faoliyatdan chalg'itib, bolani ko'proq erkalash, unga nisbatan qo'yiladigan talablarni pasaytirish boshqalarga esa ortiqcha talabchanlik kattalar tomonidan o'jarlikni shakllanishiga zamin hozirlaydi.

O'jarlikning shakllariga xos muhim salbiy hislatlaridan biri shaxsiyatparastlikdir. "O'jarlik xarakterning o'ziga xos shakli bo'lib, lekin uning mazmunini to'la aks ettirmaydi". O'jarlik-har doim irodaviy sustlikning salbiy ta'siri hisoblanib, o'jarlik shakli qisman odamning temperamentiga bog'liq bo'ladi. Temperament shaxsning psixik xususiyatlaridan biri bo'lib, nerv sistemasi xususiyatlarini aks ettiradi. Har bir temperamentning o'ziga xos ijobiy va salbiy tomonlari mavjud, ya'ni garchi temperament shaxsning tug'ma sifati bo'lsa ham, uni salbiy tomonlarini tuzatish imkoniyati mavjud.

Pedagogik-psixologik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, o'jarlik har bir temperament tipiga turlicha ko'rinishi mumkin. Masalan: xolerik bolalarda-o'jarlik odatda agressiv hujumkorlik xarakteriga ega bo'lib, nizo-janjalgacha bahona izlaydi.

Melanxolik bolalarning o'jarligi ko'pincha himoya qiladigan, qo'riqlaydigan, mudofaa xarakteriga ega bo'ladi. Temperamentning xolerik va melanxolik tipi o'jarlikni yengil vujudga keltiradi. Xolerik tipi tutriqsizlik, betayinligi, melanxolikasab tizimining bo'shligi, zaifligi bilan belgilanadi. Asosan o'jarlik turi bolalar o'jarligini keltirib chiquvchi ijtimoiy-pedagogik asoslar bilan belgilanadi.

Bolani o'jarligi asosan sog'lom ijtimoiy-muhit bo'lmagan tarbiyaning muhim prinsiplari buzilgan oialalarda shakllanadi. Rus pedagogi Makarenko ta'kidlaganidek, insonga mumkin qadar ko'proq hurmat va talabchanlik kerak.

O‘jarlik shakllangan bola katta bo‘lganda ham o‘zining noto‘g‘ri fikrini ma’qullatishga urinadi. U xuddi qaysar otga o‘xshab, bema’ni o‘jarligi bilan odamlarning me’dasiga tegadi. “Imkoni boricha bolaga yaxshi ta’lim-tarbiya berishga intilish lozim,-deydi Koshifiy,-toki u ijobiy xususiyatlarini o‘zlashtirsin va yaramas xatti-harakatlardan o‘zini muhofoaza qilsin”.

O‘jarlik ko‘pincha oiladagi yomon munosabatlar ta’sirida vujudga keladi ya’ni bolani xafa qilishsa, erkalatsa, yoki qarovsiz tashlab ketishsa, oila haqiqiy jamoa bo‘lmasa. Oila jamoasining hamjihatligi, do‘stlik va o‘zaro yordam sharoiti-oilada bolani to‘g‘ri tarbiyalashda, jumladan, uni intizomlilikini tarbiyalashda va o‘jarlikni oldini olishda zurrudir.

Bolalar xarakteridagi nuqsonlarni ya’ni o‘jarlikni yo‘qotishda kattalar ularni irodasini mustahkamlashga yordam berishlari kerak. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinmi, maktabgacha yoshdagi bolalarda bunday xarakterning salbiy xislatlarini oldini olishimiz shart.

Bolalarda qat’iyat asta-sekin shakllanadi. Dastlab ular oddiy vazifalarni bajarishda harakat qiladi, vaqt o‘tishi bilan esa murakkabroq maqsadlarni qo‘yib, ularga erishishga intila boshlaydi. Bu jarayonda ota-ona va o‘qituvchilarning qo‘llab-quvvatlashi katta rol o‘ynaydi.

Qat’iyatli bola odatda sabrli, maqsadga intiluvchan va mas’uliyatli bo‘ladi. U muvaffaqiyatsizliklardan cho‘chimaydi, aksincha, ulardan xulosa chiqarib, yana harakat qilishga intiladi. Bu sifat o‘qishda ham, hayotda ham muhim natijalarga olib keladi.

Qat’iyatni rivojlantirish uchun bolaga kichik maqsadlar qo‘yish va ularni bosqichma-bosqich amalga oshirishga o‘rgatish zarur. Har bir erishilgan natijani e’tirof etish va rag‘batlantirish bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

Shuningdek, bolaga qiyinchiliklarni yengish tajribasini berish ham muhimdir. Hammasini uning o‘rniga hal qilib berish emas, balki uni mustaqil fikrlashga va yechim topishga yo‘naltirish kerak.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bolalarda xulq-atvor shakllanishi ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lib, bu jarayonda oila, maktab va ijtimoiy muhitning o‘zaro hamkorligi muhim hisoblanadi. To‘g‘ri yondashuv orqali bolalarda ijobiy va barqaror xulqni shakllantirish mumkin.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Husayn Voiz Koshifiy.Futuvvatnomai Sultoniy/H.Komilov tarjimasi.- Toshkent:A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti,1994.-B 6970
2. Shoumarov G‘., Akramova F., Umarov B. Oilada ma’naviy-axloqiy tarbiya. T: 2015.B.20.
3. M. Imamova. Oilada bolalarning ma’naviy axloqiy tarbiyasi — T. “O‘qituvchi”. 1999- y.
4. Ziyonet